

## MILLIY ARMIYAMIZ G'URURIMIZ

**Xasanov Nurmuhammad**

*Farg'ona davlat universiteti harbiy ta'lif fakulteti magistri*

**Alinazarov Nodirxon Nosirxonzoda**

*Farg'ona davlat universiteti*

*Harbiy ta'lif fakulteti 1- kurs talabasi*

**Ubaydullayev Saidakbar Saydaliyevich**

*Harbiy ta'lif fakulteti 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Mamlakatimiz Qurolli Kuchlari bugun mustaqilligimiz, davlatimiz suvereniteti va hududiy yaxlitligini saqlash, tinch va osuda hayotimizni himoya qilishning muhim tayanchi, kafolatiga aylandi. Zamonaviy harbiy texnika bilan ta'minlangan, ixcham, tezkor va professional armiyamiz Vatanimizning mustahkam qalqonidir.

**Kalit so'z:** Zamonaviy, mustaqillik, armiyamiz, O'zbekiston Respublikasi, mamlakatimiz, himoya xizmat.

Bugungi zamonaviy, ixcham, tez harakatlana oladigan professional armiyamiz hamda unda xizmat qilayotgan mard va jasur yigitlarimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi. Chunki, ana shunday zabardast armiya mustaqil Vatanimizning osoyishtaligini, milliy xavfsizligini, tinch va osuda hayotimizni ta'minlabgina qolmay, barqaror taraqqiyot va nurli istiqbolimizning kafolatidir.

Darhaqiqat, Mustaqillik qo'lga kiritilgan dastlabki kunlardanoq, mamlakatimizda Qurolli kuchlarni mustahkamlashga qaratilgan qator islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Avvalo, ushbu tizimni qonun yo'li bilan himoyalash masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Dastlabki qadam Bosh Qomusimizning 52-moddasida "O'zbekiston Respublikasini himoya qilish – O'zbekiston Respublikasida yashayotgan har bir fuqaroning burchi" degan modda bilan qat'iy belgilab qo'yildi. Mintaqadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni barqarorlashtirish, chegaralarimiz daxlsizligini ta'minlash, milliy xavfsizligimizni himoya qilishni kuchaytirish borasida qator qonun hujjatlari qabul qilindi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2012 yil sentyabr oyida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qonun aynan ushbu maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan. Mazkur hujjatda O'zbekistonning turli harbiy-siyosiy blok va alyanslarga qo'shilmasligi, o'zining suvereniteti va hududiy yaxlitligini himoya qilish bo'yicha qat'iy pozitsiyaga ega ekani, o'z hududida xorijiy davlatlarning harbiy bazalari joylashtirilishiga yo'l qo'ymasligi, mustaqil, izchil va faol tashqi siyosat olib borishi haqidagi prinsiplar aniq-ravshan bayon etilgan.

O'tgan yillar davomida maqsad qilib olingan ezgu amallar bugun o'z samarasini ko'rsatmoqda. Bir so'z bilan aytganda, O'zbekistonda mamlakatimiz

xavfsizligi, hududiy yaxlitligi va sarhadlarimiz daxlsizligini, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini qo'riqlashga qodir, zamonaviy harbiy texnika bilan ta'minlangan professional armiya vujudga keldi. Qurolli Kuchlarni isloh qilishga qaratilgan Davlat dasturi esa milliy armiyani shakllantirish va boshqarishning sifat jihatidan mutlaqo yangi tizimiga o'tish imkonini berdi. Shu boisdan ham harbiy xizmat muddati bir yil etib belgilandi, safarbarlik-chaqiruv zaxira xizmati joriy etildi va bu jarayonlar izchillik bilan davom ettirilmoqda. Har qanday xavf-xatarga tayyor turish uchun qo'shinlar moddiy-texnik negizini yaxshilash, ularni zamonaviy qurol-aslaha bilan ta'minlash, amaliyotda xalqaro tajriba usullaridan foydalanish borasida ko'pgina chora-tadbirlar amalga oshirilishi natijasida harbiy xizmatga ishonch, ayniqsa yoshlarimiz orasida harbiy kasblarga qiziqish yanada ortdi.

Zero, tinch bo'lgan mamlakatda odamlar xalq, baxtli kun kechiradi, jamiyatda barqarorlik hukm surib, xorijiy mamlakatlar bilan turfa aloqalarni yo'lga qo'yish imkoniyati yaratiladi. Har kuni ertalab ishonch bilan farzandlarimizni bog'cha-yu maktabga kuzatamiz, ishga kelamiz, yaxshi kayfiyat, xursandchilik bilan uyga qaytamiz. Tinchlik va osoyishtalik tufayli qishlog'imiz, mahallalarimizda to'yu tantana yoki shodu-xurramchilik. Hayotimizdagi bu baxtli onlarning bosh mezoni tinchlik va osoyishtalik, xotirjamlikdir.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, islom dini, Qur'oni karim asoslariga yo'g'rilgan tinchlik va osoyishtalik xalqimizning buyuk qadriyati hisoblanadi. Shu bois, tinchlik va barqarorlikning jamiyat rivojidagi o'rni, kishilarning hayoti uchun ahamiyati qadim zamonlardanoq anglab yetilgan. Xuddi shuningdek «Avesto», «Tavrot», «Injil», «Veda»larda insonning ma'naviy yuksalishining muhim omili sifatida tinchlik va barqarorlik ham e'tirof etilgan. Jumladan, tinchlikning qadr-qimmatiga oida qarashlar sharq xalqlarining buyuk ma'naviy merosi "Avesto"dayoq o'z ifodasini topgan.

Avestoda insonlarning bilim va donolik, aql-farosat, xayri-saxovat va farovonlik, tinchlik hamda barqarorlik, zulm, adovat, nizolarni odilona hal etishlari asosiy burchlari ekanligi uqtirilgan. Shuningdek, Tavrotda ham har bir insonning tinchlikni o'z orzu-intilishi, maqsad-muddaosi ro'yobga chiqishining sharti deb yashashi talab etiladi. Shuning uchun ham unda "Abadiy tinchlik ahdi - «Va ular bilan tinchlik ahdini tuzaman, abadiy ahd ular bilan bo'ladi» deb yozib quyilgan.

Chunonchi, Aflatunning falsafiy ta'limotida tinchlik farovonlik garovi ekanligi alohida qayd etiladi. Shuningdek, faylasuf tinchlik inson ruhiyati va substatsiyasi (javhari)ning asosini tashkil etishini alohida ta'kidlab o'tadi. Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" nomli asarida qayd etishicha, aynan Aflatun "Agar qonun jang qilishni buyursa, demak bu urush uchun emas, tinchlik uchun qilinadi" deb yozadi. Aflatun o'zining bu fikri bilan insonning xavfsiz yashashi uchun birgina farovonlikning o'zi yetishmasligini asoslamoqchi bo'ladi. Aflatunning shogirdi Arastuning ijtimoiy-siyosiy va axloqiy qarashlari markazida ham tinchlikparvarlik g'oyasi ustuvor ahamiyat kasb etgan. Uning fikricha har bir bilimli inson beshta asosiy masala bo'yicha o'z fikrini bildira olishi kerak. Bular moliyaviy ahvol, urush va

tinchlik, vatan himoyasi, mahsulotlarni olib kelish va chiqarish, qonunchilik. Tabiiyki, ushbu ahamiyatga molik masala G'arb va Sharq allomalarining diqqat markazida bo'lgan.

Tarixning shahodat berishicha dunyoda shu kungacha katta va kichik urushlar bo'lgan. Oxirgi ikki jahon urushi 100 millionlab kishilarning hayotiga zomin bo'ldi. Urushni ko'rgan kishilar uning naqadar dahshatli hol insonlarning hayotiga, barqaror taraqqiyotga kushanda ekanligaga ishonch hoslil qilgan keksalar doimo qo'lllarini duoga qo'l ochganda halqimizga tinchlik omonlik tilaydilar.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Курбанова, З. Ш. (2022). ЗАМОНАВИЙ ГИНЕКОЛОГИЯДА ТУХУМДОН ПОЛИКИСТОЗ СИНДРОМИ. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(9), 27-35.
2. Сайфутдинова З. А., Бабаджанова Ш. А., Курбонова З. Ч. Цитологический анализ красного костного мозга у беременных с патологией гемостаза. – 2019.
3. Сайфутдинова, З. А., Ш. А. Бабаджанова, and З. Ч. Курбонова. "Цитологический анализ красного костного мозга у беременных с патологией гемостаза." (2019).
4. Сайфутдинова, З. А., Бабаджанова, Ш. А., & Курбонова, З. Ч. (2019). Цитологический анализ красного костного мозга у беременных с патологией гемостаза.
5. Курбонова З. Ч. Вирус этиологияли сурункали гепатит ва жигар циррозида гемостаз тизими бузилиши хусусиятлари. – 2019.